



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING GRAMMATIK SAVODXONLIGINI
OSHIRISHDA SHE'RIY MATN JANRINING O'RNI

Hakimova Marjona Iskandarzoda

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

E-mail: marjonahakimova211@gmail.com

+998904592997

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining grammatik savodxonligini oshirishda she'riy matn janrining o'rni yoritilgan. Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida berilgan she'riy matnlar misolida o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, grammatik tushunchalarni shakllantirish, so'z yasalishi, tovush o'zgarishlari, gap tuzilishi hamda nutq madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, she'riy matnlarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, ularning grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *grammatik savodxonlik, she'riy matn, boshlang'ich ta'lim, nutq rivojlantirish, so'z boyligi, grammatik kompetensiya, o'qish savodxonligi, ona tili ta'limi, she'r tahlili, til birliklari.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль поэтических текстов в повышении грамматической грамотности учащихся начальных классов. На примере стихотворных произведений, включённых в учебники родного языка и читательской грамотности, раскрываются возможности расширения словарного запаса учащихся, формирования грамматических понятий, развития культуры речи и языковых навыков. Обосновывается эффективность поэтических текстов как важного средства формирования грамматической компетентности младших школьников.*

Ключевые слова: *грамматическая грамотность, поэтический текст, начальное образование, развитие речи, словарный запас, грамматическая компетенция, читательская грамотность, родной язык, анализ стихотворения, языковые единицы.*

Abstract: *This article discusses the role of poetic texts in improving the grammatical literacy of primary school students. Based on poetic texts included in mother tongue and reading literacy textbooks, the study analyzes opportunities for vocabulary enrichment, development of grammatical concepts, word formation skills, speech culture, and language competence. The educational value of poetic texts and their effectiveness in developing grammatical competence among young learners are scientifically substantiated.*

Keywords: *grammatical literacy, poetic text, primary education, speech development, vocabulary enrichment, grammatical competence, reading literacy, mother tongue education, poetry analysis, language units.*

Kirish. *Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning grammatik savodxonligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Grammatik savodxonlik*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish, fikrini aniq va ravon ifodalash hamda ona tili me'yorlarini puxta egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois boshlang'ich sinflarda grammatik bilimlarni o'rgatishda samarali vositalardan foydalanish talab etiladi.

She'riy matnlar o'zining ixchamligi, ohangdorligi, obrazlilik va ta'sirchanligi bilan kichik yoshdagi o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi. She'rlar orqali o'quvchilar nafaqat estetik zavq oladilar, balki til birliklarini amaliy ravishda o'zlashtiradilar. Xususan, she'riy matnlarda qo'llangan so'z va iboralar, grammatik shakllar, tovush va harf munosabatlari, so'z yasalishi hodisalari o'quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida berilgan she'riy matnlar o'quvchilarning grammatik savodxonligini rivojlantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ushbu she'rlar orqali o'quvchilar til birliklarini amaliy o'zlashtiradilar, so'z boyligini kengaytiradilar hamda nutq madaniyatini rivojlantiradilar. Quyida ayrim she'riy matnlarning grammatik savodxonlikni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Qambar Otaning O'zbek bolalar she'riyatida oddiygina qalam haqida ancha she'rlar bitilgan. Shoirning "Qalam deydi" she'ri butunlay o'ziga xos, arginal asar. Sarlovhasidan sezilganidek butunlay yangi mazmun, yangi ifodaga ega bo'lgan yangi she'r. Qalam sinib ketmay uzluksiz ishlashni, odamlarga foyda, naf keltirishini istaydi. Yosh kitobxonni tinmay o'qish, yozish va izlanishga chorlaydi:

Qalam deydi	Ayab, aslo
Yozavergin,	Tindirmagin.
Ilm koni	Qog'ozlarda
Kezavergin.	Izm bo'lsin
Faqat meni	Elga aytgan
Sindirmagin.	So'zim bo'lsin.

Mazkur she'r o'quvchilarning fe'l so'z turkumiga oid bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. She'rda qo'llangan "yozavergin", "kezavergin", "sindirmagin", "tindirmagin" kabi buyruq-istak maylidagi fe'llar orqali o'quvchilar fe'l shakllarini amaliy ravishda o'zlashtiradilar. Shuningdek, fe'llarning takroriy qo'llanishi nutqning ta'sirchanligini oshirib, grammatik ko'nikmalarning shakllanishiga yordam beradi.

2-sinf, 2-qism, 51-bet. So'zning ta'mi. Abdurahmon Akbar.

Insonning aytayotgan so'zlari va boshqalarga muomalasidan uning ichki dunyosi, fe'l-atvori haqida xulosa chiqarish mushkul emas. Qo'pol va dag'al so'zlar ham, shirin va yoqimli so'zlar ham bir og'izdan chiqadi; faqat bu so'zlovchining mahorati va nazokatligiga bog'liq.

Abdurahmon Akbar qalamiga mansub ushbu matnda bolalarga so'zni o'rinli qo'llay olishga oid saboqlar keltirilgan bo'lib, shoir so'zlarning o'rnini almashtirish jarayonida ularning ma'nosida yuzaga kelgan nozik, go'zal o'zgarishlarni namoyon etadi. Matnga "So'zning ta'mi" deb nom berish bilan birga, bolajonlarda so'zda ma'za, ta'm bo'lishi mumkinmi ekan degan savollarga darrov javob tayyorlab qo'ygan. So'zning mazasi tatib ko'rilmay, o'qib anglanadi va rohatlaniladi. So'zdagi mag'za uning ma'nosidagi nozik tomonlarda aks etadi. Masalan, "osmonga chiqdi" iborasini o'rniga "osmonda kuldi", "sayray boshladi" o'rniga "kuylay boshladi" deb keltirib, bu





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



so‘zlarni ta’mlil so‘zlar deya baholaydi. Kishi bunday so‘zlardan foydalanish san’atiga ega bo‘lishi uchun kitobga oshno bo‘lishi, ko‘plab asarlarni mutolaa qilishi va o‘qiganlarining mag‘zini chaqa olishi kerak. Ushbu matn bolajonlarni aytayotgan so‘zlariga e’tibor bilan munosabatda bo‘lishga, so‘z ummonidan munosiblarini tanlashga va kitobsevarlikka undaydi.

2-sinf, 2-qism, 53-bet. So‘z boylovchi. Dilshod Rajab

Dilshod Rajab qalamiga mansub ushbu she’rda so‘z ustalarining so‘z tanlashdagi mahorati, so‘zlardagi harflarni qo‘shish, tushirib qoldirish va tilimizda mavjud bo‘lgan boshqa so‘zlarni qo‘shish asnosida yangi ma’noli so‘zlar kelib chiqish hollari yoritilgan. So‘z — sehriga, so‘zdan foydalanadigan insonlar esa sehrigarga qiyoslanadi. Ma’nosida bir-biridan yer bilan osmoncha farqlanadigan so‘zlar, bir tovush almashishi vositasida o‘zaro bir xillikni hosil qilib qolmoqda. „Ayozi“ va „yoz“ so‘zlari buning yorqin dalilidir. Qovoqning yoniga ari qo‘ysa, pirillab uchib ketar ekan. Yosh kitobxon dastlab bu hodisani qanday ro‘y berishini bir zum anglamasligi, she’rdagi an’anaga ko‘ra, qovoq so‘zining yoniga ari so‘zini qo‘yib, qovoqarini yasab, beixtiyor yuziga tabassum yugurishini ko‘rib, zavqlantiradigan ajib holatga guvoh bo‘ladi. She’r o‘quvchilarni tilimizning naqadar boyligiga, beixtiyor foydalanadigan so‘zlar ichida yana boshqa qaysidir so‘zlar yashiringanini anglashga va o‘zlari ham shunday „sehrigarlik“ qilishga urinib ko‘rishga undaydigan qiziqarli ijod namunasiga aylanadi. Bolalar she’rni o‘qib nafaqat zavqlanishadi, balki o‘z zehni va topqirliklarini ishga solib, shunday „sehrigarlik“ qilishga tirishadilar.

2-sinf, 1-qism, 39-bet. Mahalla – ota-ona. Kavsar Turdiyeva.

Kichik maktab yoshidagi bolalar hali anchagina yosh sanalganliklari tufayli, ularning bajarayotgan xatti-harakatlari ba’zi hollarda noto‘g‘ri bo‘lishi va bu kattalar tomonidan tanbeh berishga sabab bo‘lishi mumkin. „Mahalla – ota-ona“ she’rida jajji bolajonlar bilan bog‘liq ushbu jarayon gavalantirilgan. Uydagilari yetmagandek, har o‘tgan qo‘ni-qo‘shnining ham aql o‘rgatib, tanbeh berishi bolakayning g‘ashiga tegib, dilini vayron qilgan. Bir kun betob bo‘lib qolganda esa, o‘sha qo‘shnilarning barchasi unga ota-onasidek mehribonlik qilganlari, uning holidan xabar olganliklari va bundan boshi ko‘kka yetgani bola tilidan ajoyib tarzda qalamga olingan. „Bir bolaga yetti mahalla ota-ona“, deganlaridek, mahalladoshlar ham har bir bolaga o‘z bolasidek mehr ko‘rsatadi, avaylab ardoqlaydi. She’r katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bolalarda kattalarga hurmat, qo‘shni va mahalladoshlarga mehr-oqibatli bo‘lish hislarini shakllantirishga yordam beradi. Yaqin insonlari faqat xato ishlari uchun tanbeh berishigagina emas, balki har qanday vaziyatda ularning yonida turishga tayyor ekanliklarini yodga soluvchi kichik, ammo mazmunli asar darslik orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, ularni kattalardek fikrlashlariga yordam beradi.

3-sinf, 8-bet. „Ona yurt“ – Dilshod Rajab

3-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining Mustaqillik darslarida Dilshod Rajab qalamiga mansub „Ona yurt“ she’ri joy olgan. Ushbu qisqagina she’rdagi satrlar bolajonlar ko‘z o‘ngida so‘lim vatanimiz ko‘rinishini tasvirlashga, uning naqadar jannatmakon ekanligini anglashga va Vatanni sevishga undovchi, ruhlantiruvchi ta’sirga ega. Tinchligimiz ramzi bo‘lgan humo qushimiz, xushfe’l, mehmondo‘st va bolajon xalqimiz, shuningdek, go‘zal tabiatimiz tasviri she’rda aks etgan. She’r bolakay tilidan o‘qilib, uning hozir yosh ekanligi va kelajakda yurtiga





munosib xizmat qilishi aytiladi. Yosh kitobxonlarga ona-Vataniga xizmat qilish, uni sevib ardoqlash va osoyishtalikni saqlash burchlari yodga solinadi. Bolajonlarda vatanparvarlik hislarini shakllantirish, Vatanni sevish va farzandlik burchlarini anglashga xizmat qiluvchi ushbu she'r o'zida boy ma'no-mazmun mujassam etgan bo'lib, sodda so'z va satrlari bilan bir zumda o'quvchilar qalbidan joy egallaydi.

2-sinf, 2-qism, 111-bet. Yo'qolgan ko'zoynak. Kavsar Turdiyeva

Ushbu hikoya kichik yoshdagi bolalar psixologiyasi, ularning qiziqishi va kuzatuvchanligini yoritib beruvchi qiziqarli hamda hayotiy lavhani o'z ichiga olgan. Asarda Gulshoda ismli kichkina qizchanning oddiy bir ko'zoynak topilishi jarayonidagi ishtiroki orqali bolalarning oiladagi ahamiyati, ularning topqirligi va kattalar tomonidan ko'rsatiladigan mehrga chanqoqligi ifodalanadi. Hikoyada Gulshodaning o'ziga xos qiziqishi, faolligi va e'tibori alohida ko'rsatiladi. U buvisi yo'qotgan ko'zoynakni topib, o'ziga va atrofida qilargalarga topqirligini isbot qilishga urinadi. Dadasi aytganidek, topqirlik mukofotlanadi — bu esa bolalarda harakat qilishga undaydigan tarbiyaviy jihatdir. Bolani maqtov yoki kichik sovg'a bilan mukofotlash ularni ruhlantirib, yanada faol harakat qilishlariga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, hikoyada oila a'zolarining birgalikdagi hayoti, har kimning o'z vazifasi bilan band bo'lishi, ovqatlanish jarayonidagi samimiylik, oilaviy mehr-oqibat, bolalarning arzimas ko'rinuvchi harakatlarining kattalar uchun qanday ahamiyat kasb etishi mahorat bilan yoritilgan. Hikoyaning oxirida esa bolalarga xos yana bir holat — mukofot olish istagida o'z ishini ikki marta takrorlash holati ko'rsatilgan. Bu hol bolalarning ichki dunyosini ochib beruvchi go'zal detal sifatida talqin etiladi. Onaning xo'mrayib qarashi bu ishining xato ekanligini, boshqa bu holni takrorlamasligini uqtiruvchi sahna bo'lib xizmat qiladi. Hikoya bolalarda topqirlik va kuzatuvchanlikni shakllantirishga, mehnat evaziga mukofot olishi mumkinligini anglashga, o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashish g'oyasini uyg'otishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida she'riy matnlardan foydalanish o'quvchilarning grammatik savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. She'rlar o'zining badiiy-estetik xususiyatlari bilan bir qatorda, til birliklarini o'rgatishning samarali vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Tahlil qilingan she'riy matnlar orqali o'quvchilar so'z boyligini kengaytiradi, grammatik tushunchalarni amaliy ravishda o'zlashtiradi, nutq madaniyatini rivojlantiradi hamda til hodisalarini chuqurroq anglaydi.

She'riy matnlarning mazmuni va shakli o'quvchilarda nafaqat ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantiradi, balki ularning grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida she'riy matnlardan maqsadli foydalanish o'quvchilarning tilga oid bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 67-b.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



2. Raximova G. Bolalar adabiyoti. (Darslik). – Samarqand: 2025. – 36-b.
3. Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi. 1-sinf uchun darslik. 2-qism. – T.: “Edutainment”, 2023. – 30-31-b.
4. Aydarova U. O‘qish savodxonligi. 4-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: “Edutainment”, 2023. – 69-70-b.
5. Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi. 3-sinf 2-qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. –T.: “Novda Edutainmet”, 2023. – 7-8-b.
6. Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. 1-qism va 2-qism. – Toshkent: Edutainment, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standarti. – Toshkent, amaldagi nashr.
8. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
9. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2023.

